

Qurbonova O'Imas Usmonovna
 Buxoro davlat pedagogika instituti
 pedagogika kafedrası dotsenti,
 pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
uuqurbonova@gmail.com

OLIIY TA'LIMDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada mustaqil ta'lim va uni o'ziga xos xususiyatlari, oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'lim tizimini tashkil qilish shakl, metod va vositalari, mustaqil ta'limning ahamiyati, mustaqil ta'lim turlari atroflicha ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, mustaqil ta'lim, motivatsiya, rivojlanish, fikrlash, harakat, o'qitish, mustaqil ta'limni tashkil qilish yo'llari, oliy ta'lim.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье подробно рассматривается самостоятельное обучение и его особенности, формы, методы и средства организации системы дистанционного обучения в системе высшего образования, значение самостоятельного обучения, виды самостоятельного обучения.

Ключевые слова: образование, самостоятельное обучение, мотивация, развитие, мышление, действие, преподавание, способы организации самостоятельного обучения, высшее образование.

FEATURES OF THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

Annotation. The article describes in detail the concept of independent education and its specific features, the forms, methods and means of organizing a distance learning system in the higher education system, the importance of independent education, and the types of independent education.

Keywords: education, independent education, motivation, development, thinking, action, teaching, ways of organizing independent education, higher education.

Kirish. Bugun ta'lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Buni ayni paytda xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganligidan ham anglash mumkin. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: **"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"** [4].

Oliy maktabda o'quv jarayonini modul-kredit tizimi asosida tashkil etilishi talabalar mustaqil ta'limini tashkil etilishni ham ko'zda tutadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil faoliyatini tashkil etish orqali uni mustaqil ishlashga, mustaqil bilim olishga stimullashtirish, mustaqil ta'lim olishi asosiy o'rin egallaydi. Mustaqil ishlar shunday o'quv faoliyati sanaladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikma hosil qilinishi, ko'nikmalar malakaga aylanishi, malaka amaliy faoliyatda qo'llash orqali kompetensiyaga aylanib borishini nazarda tutadi.

Doimiy va tez o'zgarib boruvchi texnologiyalar, bilimlarning yangilanishi zamonaviy sharoitga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lish, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zaruriyati talabalarni yoshlikdan yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatib borish lozimligini anglatadi.

Asosiy qism. Agar ta'lim oluvchilarning "mustaqil o'rganish", "mustaqil faoliyat", "mustaqil ta'lim" tushunchalarini xorij va o'zbek olimlari tadqiqotlari orqali tahlil qilsak, mustaqil o'rganish - tafakkur jarayonining sharti hamda aqlning xislati (M.N.Mardonov, E.Z.Usmonova), mustaqil o'rganish - bu aqliy faoliyat usullarini egallashning natijasi hamda shartidir (D.B.Bogoyavlenskiy, Ye.N.Kabanova - Meller, V.I.Reshetnikov).

V.M.Karimova, R.I.Sunnatovalarning ta'kidlashlaricha, mustaqil o'rganish - bu shaxs xislati bo'lib, masala yechishning aniq usulini tanlash hamda yechimini ta'minlashdan iborat [2].

Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarini tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil etadi.

Talabalar mustaqil ta'limi fanlardan olgan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish shu bilan birga talabalarning yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan intilishi sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir.

Mustaqil ta'limning vazifalari shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirishga qaratiladi.

Mustaqil o'qish o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni talaba muayyan ta'lim muassasasiga bormay turib, uyda o'zi o'quv materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qishi va o'rganishi mumkin.

N.Muslimovning fikricha mustaqil ta'lim - bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining sub'ektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir.

Mustaqil ta'limni pedagogik tamoyillarga asoslanib tashkil etilishi lozim. Masalan, talabalarning ongliklik va faolligi tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash malakalarini ongli va faol egallab oladilar, bunda ularni ijodiy tashabbuskorlik, o'quv materialini mustaqil egallash, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yo'naltirish talab etiladi [1].

Mustaqil ta'lim – o'qituvchining bevosita ishtirokisiz o'quv topshiriqlarini bajarishni o'z ichiga olgan o'quv faoliyati turi. Mustaqil ish o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi; talabalarga olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, shuningdek, mustaqillik va o'z faoliyatini erkin tashkil etishni rivojlantirish imkonini beradi.

Mustaqil ta'lim o'z-o'zini o'rganish hamda mustaqil ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun foydalidir, shuningdek, talabaga mustaqil bo'lishga imkon yaratadi.

Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning xususiy-didaktik maqsadiga ko'ra tiplari

№	Mustaqil ish tipi	vazifasi
	Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi	bu sirdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki bilimlarning (bilim, tushuncha hosil qilish-birinchi bosqich) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga etish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko'zda tutiladi.
	Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi tipi	Bunda o'zlashtirilgan ahborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan ko'nikmalar shakllanadi. Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi, talabalardan ushbu g'oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va vositalari talab qilinadi.
	Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi tipi	talabalarda uchinchi bosqich – tipik bo'lmagan vazifalarni bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir. Bu maqsadga talabalardan o'rganilayotgan obyektidagi o'zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi tipi	ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir. Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan ob'ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar munosabatlarni o'rnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi
---	---

Mustaqil ishlarni tashkil etish samaradorlini oshirish quyidagi shartlarni talab etadi. Jumladan,

- a) mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;
- b) mustaqil ish vazifalarini individuallashtirish;
- c) mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish;
- d) mustaqil ravishda o'z bilimlarini yanada oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi.

Mustaqil ta'lim bo'yicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasini tuziladi.

Rejaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- e) rejalashtirilayotgan ishlarning hajmi va ketma-ketligi;
- f) ularning bajarish muddati;

g) mustaqil faoliyatning har bir turiga mos talaba shaxsini rivojlantirish bilan bog'liq maqsadli harakatlar.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Mustaqil ish turlari

Mustaqil ish turlari				
Namunalar	bo'yicha	Rekonstruktiv-variativ	Evristik (qisman, ijodiy)	Ijodiy tadqiqot
tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materialni o'zlashtirish uchun omil bo'ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirmaydi.		nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda tutadi.	ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog'liq.	tadqiqot muammosini ko'ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilay olish, muammoni hal qilish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishga yo'naltiradi.

Ko'rinib turibdiki, ijodiy tadqiqot ishlarida vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Talaba o'z faoliyatida tayyor namunadan emas, balki masalani hal qilish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment o'tkazish, o'quv jihozlari, maketlar va didaktik vositalarni loyihalash bilan bog'liq vazifalar kiradi.

Xorijiy tajribalarga nazar tashlasak, olim Xendersen mustaqil tadqiqotlar yaxshi motivatsiyaga ega bo'lgan talabalarga an'anaviy akademik dasturga mos kelishi shart bo'lmagan, lekin talabani qiziqtirgan mavzuni o'rganishiga imkon beradi. Bu talabalarga maxsus materiallarni o'rganish yoki tadqiqot tajribasini olish imkonini beradi, deb hisoblaydi [3].

Amerika Qo'shma Shtatlari Oliy o'quv yurtlarida talabalar mustaqil ta'limining turli shakllari qo'llanadi. M., onlayn, individual yoki gibril onlayn mustaqil ta'limi, mustaqil o'quv dasturlari, ayniqsa, an'anaviy ta'lim muhitini qoniqarsiz deb biladiganlar uchun foydalidir. Masalan, mustaqil o'rganish sog'lig'i bilan bog'liq muammolari mavjud bo'lgan, intensiv o'qish jadvali yoki iqtidorli akademik qobiliyati bo'lgan iqtidorli talabalar uchun juda mos keladi. Ko'pincha, yuqori natijaga erishgan talabalarga darsga bormasdan o'rganishlari uchun mustaqil ta'lim olish taklif etiladi.

Mustaqil ta'lim jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi zarur.

Mustaqil ta'limning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan kasbiy faoliyatda foydalanish malaka va kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq. Qo'lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatda zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.

Shuningdek, mustaqil ta'limga amaliy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishlash ham kiradi.

Mustaqil ta'limning muhim metodlaridan biri talabalarni o'quv axborotlari bilan tanqidiy ishlash malakalari bilan bo'g'liq bo'ladi. Bu orqali talabalarining tadqiqotchilik malakalari, ijodiy izlanishga bo'lgan intilishi, o'z ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot olib borishning mohiyatini anglab yetishi muhim sanaladi.

Mustaqil topshiriqlarni samarali bajarish uchun talaba quyidagi tavsiyalarga amal qilishi zarur: topshiriqni diqqat bilan o'qib chiqish va Mustaqil ishda nima talab qilinishini tushunib olish lozim. Vazifani kichikroq bosqichlarga ajratish zarur. Vazifani bajarish uchun reja tuzish, kerakli ma'lumot va materiallarni topish; olingan bilimlarni tizimlashtirish kerak. Tugallangan vazifani tekshirib chiqish talab etiladi.

Mustaqil ish o'quv jarayonida muhim o'rin tutadi, u quyidagilarga imkon yaratadi. Talaba tomonidan olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, mustaqillik va o'z-o'zi tashkil etishni rivojlantirish, talabalarni mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga o'rgatish negizida talabalarni kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlash.

O'qituvchi tomonidan mustaqil ishlarni rejalashtirish va tashkil etish strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish va rejalashtirish uchun quyidagi omillarni hisobga olish zarur: mustaqil ishning maqsadi, mustaqil ishlarni bajarish muddati, kerakli o'quv materiallari va manbalar, talabalarining tayyorgarlik darajasi, topshiriqni bajarish uchun amaliy maslahat berish, o'z-o'zidan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradigan amaliy maslahatlar.

Shuningdek, talabalarining ruhiy tayyorgarligi ham muhim o'rin egallaydi. Bunda vazifani erta boshlash, shunda unga tayyorgarlik ko'rish uchun yetarli vaqt bo'ladi. Savol tug'ilsa, o'qituvchidan yoki boshqa talabalardan yordam so'rashdan qo'rqmaslik, xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun bajarilgan topshiriqni tekshirish lozim.

Oliy ta'limda mustaqil ishning quyidagi turlari ajratiladi: test sinovlari talabalarining bilim va malakalarini tekshirishga qaratilgan mustaqil ish turlaridir. Bularga testlar, topshiriqlar, kreditlar va imtihonlar kiradi.

Amaliy ish - talabalarining amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan mustaqil ish turi. Bularga laboratoriya ishlari, kurs loyihalari va diplom ishlari kiradi.

Ilmiy ishlar - talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini, ilmiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ish turlaridir. Bularga tezislar, kurs ishlari va taqrizlarni kiritish mumkin.

Mustaqil ish turlari quyidagi xususiyatlarga ega. Masalan, testlar butun o'quv jarayonini qamrab olishi mumkin. Ular o'qituvchiga talabalarining bilim va ko'nikmalarini baholash, shuningdek, o'quv harakatlaridagi zaif tomonlarini aniqlashga imkon yaratadi.

Amaliy ishlar laboratoriya, seminarlarda yoki boshqa o'quv binolarida amalga oshiriladi. Ular talabalarga olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliyotda qo'llashni o'rganish imkonini beradi.

Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari uzoq muddatda amalga oshiriladi. Ular talabalarga muayyan mavzuni mustaqil o'rganish, tadqiqot olib borish va ilmiy ma'ruza yozishga imkoniyat yaratadi. Mustaqil ishni bajarish uchun o'quv didaktik vositalardan foydalanish mumkin.

Darslik va o'quv qo'llanmalar mustaqil ishni bajarish uchun asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi. Ilmiy maqolalar tadqiqot ishlarini bajarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumot manbalari hisoblanadi.

Internet - bu har xil turdagi mustaqil ishlarni bajarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan keng ma'lumot manbai.

Kutubxonalar kerakli manbalarni topish uchun foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumot markazlari. Oliy ta'limda mustaqil ish turi maqsad-vazifalari hamda va amalga oshirish usullari bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Talabalar mustaqil ishlarni bajarish uchun turli vositalardan foydalanishlari mumkin.

Sun'iy intellekt (SI; inglizcha: "artificial intelligence", AI) inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi hisoblanadi. Bugungi kunda keng qo'llanilib kelinayotgan sun'iy intellekt texnologiyalariga aqlli veb-qidiruv tizimlari (m., YouTubeSearch), tavsiyaviytizimlar (YouTube, Amazon va Netflix), tabiiy tilni tushunish (Google Assistant, Siri va Alexa va h.), o'zini-o'zi boshqaradigan avtomobillar (masalan, Waymo) va boshqalarni keltirish mumkin [5].

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim o'qitishning eng muhim yo'li bo'lib, unda talabalar mashg'ulotga tayyorlanish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baybaeva M. X. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi va kasbiy yo'nalganlik // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2005.
2. Karimova V.M. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq. 2000. -112 b.
3. Хендерсон, Юан. С. (1984). «Введение: теоретические взгляды на образование взрослых». В Хендерсоне, Юан. С.; Натенсон, Майкл Б. (ред.). Самостоятельное обучение в высшем образовании. Энглвуд Клиффс, Нью-Джерси: Публикации по образовательным технологиям. С. 3–56. ISBN 978-0-87778-188-2. Проверено 25 мая 2013 года.
4. <https://daryo.uz/2023/12/09/mamlakatni-qudratli-millatni-buyuk-qiladigan-kuch-bu-ilm-fan-talim-va-tarbiyadir-shavkat-mirziyoyev>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt